


**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY
VA ЎRTA MAHSUS TAЪLIM VAZIRLIGI
BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**



BUKHARA STATE UNIVERSITY

30-oktabr 2020-yil

OUR KNOWLEDGE IS A BIG SUCCESS IN LIFE

Department Eng

SOAT 10:00

**BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR FAKULTETI
INGLIZ TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI
TIL VA TIL O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

UNIVERSITET ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMANI
(KAFEDRA OLIMASI M.Q.ABDULLAYEVA TAVALLUDINING 80 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI)

**QAYSITILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ**

**Manzil: Buxoro davlat universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi 11-uy.**

БУХОРО – 2020

5. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.- В.232.
6. Қўшжонов М. Сайланма.1-жилд. Адабий портретлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. - В. 384.

O'ZBEK VA JAHON ADABIY ALOQALARI

Xabibullayeva Roza Muhamadayubovna

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti Ingliz adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

va Safoyeva Maftuna Gulmurod qizi

11-7 chi 17 guruh talabasi

Anotatsiya: Adabiy aloqalar adabiy-ijodiy munosabatlarning o'ziga xos yo'nalishi sifatida qadimdan mamlakatlar, xalqlar va buyuk ijodkorlarning o'zaro hamkorligi va hamfikrligini ta'minlovchi omil bo'lib kelgan. O'zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko'ra turli ko'rinishlarda rivojlanib kelyapti. Adabiy aloqalar bu-ijodiy hamkorlik, do'stona munosabatlar, ustoz-shogird an'analarini o'zida jalb etgan millatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. Mustaqillik ostonasida o'zbek adabiyotining adabiy aloqalari ijodiy jarayonning faol jabhasiga aylandi. Hozirgi kunda mazkur soha jahon miqyosida rivoj topib, uning yangi shakllarini yuzaga keltirdi, jumladan, ijodkorlarning badiiy tarjima vositasida jahon adabiyoti tajribalariga murojaati kuchaydi.

Kalit so'zlar: tarjima, kommunikatsiya, falsafiy, adabiy-estetik, tasvir, madaniyat.

Аннотация: Литературные связи как свое образное направление литературно-творческих отношений издавна служили фактором, обеспечивающим взаимное сотрудничество и солидарность стран, народов и великих творцов. На протяжении и всей истории и узбекской литературы литературные связи развиваются в различных формах в соответствии с целями и задачами. Литературные связи – это важный процесс в духовно-культурном развитии и нации, включающий в себя творческое сотрудничество, дружеские отношения, традиции и учителя и ученика. Литературные связи узбекской литературы на пороге независимости стали активным фронтом творческого процесса. В настоящее время эта сфера нашла свое развитие в мировом масштабе, сформировала новые формы, в том числе, благодаря художественному переводу, усиливается обращение творческих людей к опыту мировой литературы.

Ключевые слова: перевод, коммуникация, философский, литературно-эстетический, образ, культура.

Kirish

Adabiy aloqalarga adabiyot ilmida ijodiy jarayonning muhim qonuniyatlaridan biri, har bir milliy adabiyot taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi omil sifatida qaralsa-da, u badiiy adabiyot masalalaridan ko'ra kengroq mohiyatni qamrab oladi. Uning dunyoqarash, millat, ma'naviyat, madaniyat, jamiyat ravnaqiga ta'sir ko'rsata oladigan qirralari bisyor. Badiiy adabiyotni tom ma'noda anglash va tushuntirish uchun kitobxon va tadqiqotchi (tadqiqotchi ham kitobxon, faqat u xoskitobxon) "hisli ko'ngil"¹sohibi bo'lishi lozim. Xuddi shu narsa badiiya dabiyot, umuman olganda o'z san'atni yuzaga keltirib, tub manoda boshqa sohalaridana jratadi. Adabiyotbu- ko'ngil ko'zi mahsuli va faqat shunday ko'ngil yordamidagina o'z qalbini tadqiqotchiga ochadi. "O'tkan kunlar" romanidagi "Navokuyi" bobida shunday tasvir va tadqiq bor: "Dutorning nozik torlaridan, tilsimlik yuraklaridan chiqq'an "Navo" kuyi o'z nolasiga tushunguchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. O'z dardiga tushungan bu yigitka borg'an sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi. Eshitkuchi esa dunyosini unutib yig'lar, kuchini yig'ishtirib yig'lar va hasratu alamini ko'zyoshisi bilan to'kib yig'lar edi. "Bu oddiy tasvir emas. Bu san'at, adabiyotning maxsuli shuningdek musiqa kuchini ko'rsatishda so'z ojiz qolgan nuqtada yana so'z va tuyg'u yordamida holatning qayta tiklanishi, ya'ni juda noyob tasvirdir. Buni hisli ko'ngilning badiiy portreti deyish mumkin. Qaysi bir milliy adabiyotning shakllanish va taraqqiyot yo'liga nazar tashlasangiz, uning rivojlanishida adabiy aloqalar va adabiy ta'sirning muhim ahamiyat kasb etganiniko'rashingiz mumkin. Binobarin, adabiy aloqalar bardavomligi bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning taraqqiy etishiga yordam beruvchi omil bo'lib qoladi. Bugun biz o'zbek adabiyotini jahon adabiy jarayonining ajralmas va tarkibiy qismi sifatida tasavvur etamiz. Adabiyotshunoslarning tafakkuridagi bu o'zgarish bizdan hozirgi o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etishni, buning uchun esa o'zbek-xorijiy adabiy aloqalarini yangi va yuksak bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Hozirgi o'zbek adabiyotining ko'rki bo'lgan asarlarni boshqa tillarga, xorijiy xalqlar adabiyotining mumtoz namunalarini esa o'zbek tiliga tarjima qilish, bir tomondan, milliy adabiyotimizga yangi adabiy uchqunning kirib kelishiga, yangi badiiy-uslubiy izlanishlarning g'uncha ochishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, binobarin, notinch dunyoda tinchlik-totuvlik, mehr va muhabbat qaldirg'ochlarining parvoz qilishiga sharoit yaratadi.

Asosiy qism

Badiiy adabiyotning shohona namunalariga ko'zga aylangan Ko'ngil bilan boqib va shunday ko'z bilan tahlil qilsak, qila olsak adabiyot falsafasiga yovuq borsak, ajabmas. Ma'naviy boyligimiz o'zga xalqlar adabiyoti, madaniyati, san'ati

¹Adabiy turlar va janrlar. (tarixi va nazariyasiga oid). 3 jildlik. 1-jild. —T.: Fan. 1991. — 334 b.

bilan tanisha borganimiz sari yuksaladi. Bu borada esa badiiy tarjimaning o'zni beqiyos. O'zbek kitobxonlari dunyo adabiyoti durdonalaridan ko'plab namunalarni ona tilida o'qimoqdalar. Bugungi kunda tarjimonlarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o'zbek adabiyotining yaxshi namunalarini jahon kitobxonlariga yetkazishdir. Davr talabidan kelib chiqib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida o'zbek adabiyoti namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilishga muhim vazifalardan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Avvalo, xorijiy tillar o'qitiladigan bir qator oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, bilim maskanlarida tarjima kengashining sho'balari ochildi. Keyingi ikki yilda "XX asr o'zbek she'riyatidan namunalar" koreys tilida (tarjimonlar: Kim Se Xek, Sh.Qosimova), "Qalbimsizga¹ intiladi" to'plami ingliz tilida (tarjimon: B.Xolbekova), Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyalar to'plami nemis tilida (tarjimon: O. Ostonskiy), "O'zbek xalq ertaklari" nemis tilida (tarjimon: Z.Akromxonov) nashr etildi. Jahon adabiy jarayoni murakkab hodisa. Unda barcha adabiyotlar doimiy aloqada bo'lib, bir-biriga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatib turadi. Bugungi kunda o'z qonun-qoidalari asosidagina rivojlanadigan, tashqi ta'sirdan xolis milliy adabiyotni topish qiyin. Biroq adabiyotshunoslikka oid ishlarda adabiy ta'sir masalasini o'rganishda ehtiyot bo'lish kerakligi doim e'tiborda bo'lib kelgan. «Adabiy ta'sir masalasini o'rganish ilmini turli yozuvchilar ijodidagi hamma va har qanday tashqi o'xshashlik va monandlikni qidirishdan iborat ermakka aylantirib qo'yish yaramaydi». Adabiy aloqalarni o'rganish bugungi sharoitida juda muhim ahamiyatga ega, mushtarak mavzular, mushtarak voqealar, mushtarak obrazlar turli adabiyotlarda mavjud. Ularni tahlil qilar ekanmiz, bir adibni ikkinchi adibning «soyasiga» aylantirib qo'yimasligimiz, bir milliy adabiyotda yaratilgan asarni boshqa adabiyotda mavjud asarning «varianti» deb qaramasligimiz lozim.

Adabiy aloqalar biryoqlama emas, balki o'zaro bo'ladi. Bunda milliy adabiyotlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va bir-birini boyitishi tushuniladi. Bu jarayonda badiiy tarjimaning o'zni beqiyos. Badiiy tarjima milliy yozuvchilar uchun katta ijodiy maydon, mahorat maktabidir. Jahon adabiyoti namunalarini dastlab o'zbek tiliga tarjima qilganlar asosan o'zlari ham adiblar, shoirlar bo'lishgan. Ular orasida Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'.G'.ulom, Oybek, M.Shayxzoda, H.Olimjon va boshqalar bo'lgan. Har bir yozuvchi, har bir shoir o'ziga yoqqan adibning asarlarini tarjima qiladi. Zo'rma-zo'raki, majburiyat yuzasidan qilingan tarjimasan'atasari bo'lmaydi: «...tarjima qiluvchi kishining o'zi yaratuvchi, ijodkor bo'lishi kerak, aks holda, o'nlab o'nlab qalin kitoblar ham hech qanday «ta'sir»ni his qilmagunicha, oddiy tilmochoq bo'lib qolaveradi». Boshqa milliy adabiyot namunasini o'z ona tiliga o'girgan tarjimonning o'zi ham adib yoki shoir bo'lsa, tarjima muvaffaqiyatli chiqadi. Zero

¹Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari) —: Akademiya, 2000.— 632 b.

ijodkor ijodkorni boshqa kishiga qaraganda aniq his qiladi, to'g'ri tushunadi va uning fikrini kitobxonga chuqurroq anglata oladi.

Yer yuzida yashovchi turli millatlar o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalar kecha yoki bugun boshlangan hodisa emas, ular doimiy rivojlanib kelayotgan to'liqdir. Ularning ildizi qadim–qadimga borib taqaladi. Adabiyotshunos olim F.K.Sulaymonova¹ to'g'ri ta'kidlaganidek, “Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lardi”. Xalqlar o'rtasida adabiy aloqalarning rivojlanishiga nashriyotlar va ommaviy axborot vositalarining ham hisssasi kattadir. Bunga o'rta asrlardanoq nashriyot-matbaachilik ishlari yo'lga qo'yilgan Yevropa misolida guvoh bo'lish mumkin. Albatta, o'zga tillarda chop etilgan asarlar bilan tezroq tanishishning eng yaxshi yo'li ularni o'sha tillarda o'qimoqdir. Biroq ba'zan tarjima va adaptatsiyalar ham qo'l keladi.

Qulay sharoitlarga ega bo'lgan Yevropa sharoitida (G'arbiy Yevropa va Skandinaviya xalqlarining tillari, birtomondan, Markaziy va Sharqiy Yevropa xalqlarining tillari, ikkinchi tomondan, yaqinligi, chegaralarning ochiqligi) kitoblar import vaeksport ham qilingan. Ba'zan mafkuraviy, ba'zan moddiy va yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra adib va shoirlarning asarlari o'z yurtlarida emas, qo'shni mamlakatlarda ham chop etilib turgan. Jumladan, mashhur ital'yan shoiri Jambatista Marinining² (1569-1625) «Adonis» poemasi dastlab Frantsiyada dunyo yuzini ko'rgan. Fransuz adiblarining «falsafiy» asarlari, aksincha, ilk bor Gollandiyada nashr etilgan. Ingliz adiblari Jeyms Joys va Genri Millerlar o'z yurtlaridagi ijtimoiy-ahloqiy muhit tufayli «Ulis» va «Tropiklar»ni Parijda nashr ettirishgan. Jahon xalqlarini bir-birlaridan ajratuvchi ham, ularni birlashtiruvchi vosita ham–tildir. Yer yuzida yashovchi barcha xalqlar, ularning vakillari bir-birlari bilan asosan tarjima orqali muloqot qiladilar. Xalqlar, millatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy aloqalar kuchaygani sayin tarjima ham, tarjimachilik ham kuchayib boraveradi. “Tarjimachilik faoliyatining bosh yo'nalishi turli tillarda gaplashuvchi xalqlarni o'zaro tanishtirish, adabiyot orqali o'zaro muloqotini tashkil etish, boshqacha aytganda, madaniyatlar aro kommunikatsiya imkoniyatini yaratishdir”.

Xulosa

Adabiyot gulshani bo'lmish buyuk asarlar insonga zavq-shavq bag'ishlaydi va ular hozirgi kungacha ko'pgina tillarda o'z shina vandalariga egadir. Mana shunday yuksak cho'qqiga erishishda, kommunikatsiya vositalarining o'zni beqiyosdir. Kommunikatsiya vositalari taraqqiyotida tubdan o'zgarish yuz bergan vaqtdan boshlab jamiyatning tarjimonlarga bo'lgan talabi ham miqdor, ham sifat jihatidan juda oshib ketdi. Har soxada tarjimonlik salohiyatlari rivojlandi.

¹Aliev A. Ma'naviyat, qadriyatvabadiiyat (Vatanfidoyilari) –: Akademiya, 2000.– 632 b.

²Adabiyot nazariyasi: 2 jildlik. M.Nurmuhamedova tahriri ostida. 1–jild, 2–jild. –T.: Fan. 1978, 1979. – 449 b.

Shuningdek, hamma sohalarda siyosatdan texnikagacha, badiiy adabiyotdan qishloq xo'jaligigacha tarjimon ko'p jihatdan hal qiluvchi shaxs bo'lib qoldi. Bugungi kunda davlatlar boshliqlari o'rtasidagi muzokaralar, xalqaro siyosiy va ilmiy anjumanlar ishlarini tarjimonlarsiz tasavvur qilish mumkin emas, ularning berayotgan ko'magi sababli adabiyot gullab-yashnamoqda. Bugungi kunda tarjima xalqlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy-siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qilmoqda. Tarjima-milliy tillarning rivojlanishini tezlashtiradi, tillarning lug'at boyligini yanada oshiradi. Shuningdek tarjima milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi va adabiy ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Milliy adabiyotlarda umum insoniy g'oyalar, yangi mavzu va yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tarjima tufayli buyuk so'z ustalarining o'lmas asarlari dunyoning minglab tillarida jaranglamoqda. Gomer, Sofokl, Vilyam Shekspir, Ioxann Gyote, Onore de Balzak, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, E. Xeminguey, Alisher Navoiy, Gi de Mopassan va boshqa o'nlab adiblarning asarlari dunyoning deyarli barcha xalqlari tillariga tarjima qilingan, va ulardagi adabiyot ko'ngli tarjimada yaqol ko'rsatilgan. Badiiy tarjima sababli milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Keyingi yarim asr ichida har bir mamlakatlar adabiyotining boshqa mamlakatlar adabiyoti olamiga kirib borishi jarayoni muayyan darajada butkul insoniyat madaniyatini to'la qamrab oldi. Milliy tillarning boyishi, mushtarak so'z, atama, iboralarning paydo bo'lishida ham, milliy madaniyatlar va milliy adabiyotlarda mushtarak ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qonuniyatlarning paydo bo'lishida ham tarjima katta rol o'ynaydi. Umuminsoniy maqsadni ko'zlab qalam tebratgan har bir yozuvchi va shoirning asarlari faqat o'z xalqining mulki bo'lib qolmay, balki butun insoniyatning ham boyligidir. Barcha xalqlar bir-birining adabiyoti va madaniyati bilan uzviy aloqa o'rnatgan taqdirdagina o'zlarining adabiyoti va madaniyatini rivojlantira oladilar. Alohida olingan har bir milliy adabiyot mavqeidan turib qaralsa, tarjima ko'proq rang-baranglik, xilma-xillikka qulaylik tug'diruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq tarjima yangidan-yangi janrlarning milliy adabiyotlarga kirib borishini ta'minlovchi unsure hisoblanadi va, shu jihatdan olib qaralsa, birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Jahon adabiyoti durdonalari tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga o'girilganda, o'sha tilde so'zlashuvchi xalqning milliy ongini o'stirishda, yangicha estetik did paydo qilishda, dunyo qarashini tarbiyalashda faol rol o'ynaydi. Demak, tarjima tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyatga ega. Original adabiyot orqali o'z xalqimizning o'tmishi, bugungi va kelajak hayotini o'rgansak, badii tarjima asarlari orqali o'zga xalqlarning hayoti, o'tmishi, turmush tarsi bilan tanishamiz. Original adabiyot ham, tarjima adabiyoti ham bir xil ahamiyatga ega, ular bir xil rivojlanadi. Bizning e'tiborimizni o'ziga ko'proq tortayotgan mamlakatlar qalam ahlari, chunonchi G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo'lagi hisoblanmish Angliya adabiyoti va ingliz zabon ijodkorlar sanalmish Amerika adabiyoti vakillari asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketadigan bo'lsa, shuni alohida qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o'zbek ijodkorlari e'tiborini darhol o'ziga tortdi va tez

orada ularning ko'pchiligi xalqimizning asarlariga aylanib, kitob javonlaridan o'rin oldi. Hozirgi o'zbek adabiyotida ingliz va Amerika adabiyotidan qilingan tarjimalar katta o'rinni ishg'ol etadi va ularning salmog'i yil sayin oshib bormoqda.

Chet ellardagi tinchlik va demokratiya tarafdorlari ham o'zbek adabiyotini sevadilar, hurmat bilan tilga oladilar, buni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Aminxo'ja Muqumiy, Zokirjon Furqat kabi klassik adabiyotimiz namoyandalari va Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Zulfiya, P. Qodirov, E. Vohidov, A. Oripov, T. Po'latov singari o'zbek adabiyoti vakillarining ko'plab asarlari ingliz, nemis, fransuz, chex, rumin, polyak, bulg'or, venger, hind va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilinganligi, chet el kitobxonlari tomonidan sevib o'qilayotganligidan ham ko'rish mumkin. Faxrlansa arziydigan yutuqlarimizdan biri bu-ayrim chet ellik adiblar, tarjimonlarning o'zbek yozuvchilari hayoti va ijodi bilan jiddiy qiziqayotganliklari diqqatga sazovordir.

Ular o'zbek yozuvchilarining ijodidan ayrim namunalarni o'z tillariga o'girish bilangina chegaralanib qolmay, balki ba'zi yozuvchilarning bosib o'tgan ijodiy yo'li bilan maxsus shug'ullana boshladilar, ularning o'ziga xos bo'lgan adabiyot usullarini o'rganmoqdalar.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Biz o'zkelajagimizni o'zqo'limiz bilan T. 7 - T.: O'zbekiston, 1999. – 410 b.
2. Karimov I. Yuksakma'naviyat–yengilmas kuch. O'zbekiston, 2008. - 173 b.
3. Karimov I. Adabiyotga e'tibor–kelajakka, ma'naviyatga e'tibor. T.: O'zbekiston, 2009. – 39 b.
4. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari) —: Akademiya, 2000.— 632 b.
5. Adabiyot nazariyasi: 2 jildlik. M.Nurmuhamedova tahriri ostida. 1–jild, 2–jild. —T.: Fan. 1978, 1979. – 449 b.
6. Adabiy turlar va janrlar. (tarixi va nazariyasiga oid). 3 jildlik. 1–jild. T. Fan. 1991. – 334 b.
7. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari) Akademiya, 2000.— 632 b.
1. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/adabi-aloqalar-ijodi-jaran-kozgusi-davra-suhbati/?lng=lat>
2. <https://saviya.uz/hayot/nigoh/ozbek-adabiyoti-namunalari-ingliz-tilida/>
3. <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>
4. https://www.edebi.net/index.php?option=com_content&view=article&id=4890:ingliz-va-o-zbek-adabiy-tida-bolalik-mavzusining-talqini&catid=32&Itemid=126

<i>Akramov I.I.</i> The aphorism and the aphoristic style of communication.....	65
<i>Ruzieva N.Z.</i> Spirituality term in scientific approach.....	68
<i>Kobilova A.B., Salimova D.</i> Obsolete and newly accepted idioms in English language with their origins.....	70
<i>Kobilova A.B., Shirinova Sh.</i> Lexical meaning versus grammatical meaning.....	73
<i>Kobilova A.B., Abdurakhmonova M.</i> Multilingualism and its importance.....	76
<i>Kobilova A.B.</i> What is Periphrasis?.....	79
<i>Rasulov Z.I., Saidov X.Sh.</i> Reduction as the way of the language economy manifestation	83

2-ШЎБА: АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ЖАМИЯТ

<i>Vokhidova N.N.</i> The depiction of evil in Shakespeare's "Macbeth".....	91
<i>Najmiyev M.M.</i> Sharq adabiyotidagi pand-nasihat ruhida bitilgan asarlar tahlili.....	93
<i>Rўzieva D.C.</i> Интеллектуал романнинг ўзига хос хусусиятлари.....	96
<i>Naimova A.M., Raximova S.</i> Tarixiy inversiyaning adabiyotdagi o'rnini va uning turlari.....	98
<i>Ganieva O.Kh., Charieva M.J.</i> Detective elements of Uzbek literary works ...	100
<i>Ахмедова С.Ҳ.</i> Эпик кўмакчи қаҳрамоннинг бадиий вазифалари.....	102
<i>Ғаниева О.Х., Садуллаев Ф.Б.</i> Одил Ёқубовнинг ўзига хос ривоя услуби ва бадиий тасвир маҳорати.....	105
<i>Xabibullayeva R.M., Safojeva M.G.</i> O'zbek va jahon adabiy aloqalari.....	108
<i>Холикова Н.Н.</i> Детектив-криминал сўзларнинг характер яратиш, бадиий-фалсафий мазмунни ифода этишдаги вазифалари.....	114
<i>Ғаниева О.Х., Эргашева М.Б.</i> Жон Стейнбекнинг "Олтин пиёла"си хусусида.....	117
<i>Sadullayev F.B., Olimova X.M.</i> O.Henri - inson ruhiyatining kuchli bilimdoni.....	119
<i>Саидова М.У.</i> К. Болдикнинг «The concise Oxford dictionary of literary terms» луғатидаги адабиётшунослик терминларининг этимологик таҳлили.....	121
<i>Saidova Z.X.</i> Ernest Xeminguey ijodida zamon va qahramon masalasi.....	124
<i>Saidova Z.X.</i> Symbolism of setting and characters in "The old man and the sea" by E.M.Hemingway.....	125
<i>Qobilova N.S.</i> muallif va asar qahramoni hayotidagi o'xshashliklar.....	127
<i>Норова Р.Ф.</i> Эртаклар тилсимотини очиш калити.....	131
<i>Норова Р.Ф.</i> Ж.Р.Киплинг ҳикояларининг талқини.....	133